

## INSONIYATNING BAXTI BILIMDADIR (“QUTADG‘U BILIG” ASARI ASOSIDA)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656627>

**Nurmatova Umida Jalolidinovna**

O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Milliy g‘oya va falsafa kafedrası dotsenti

E-mail: [umidaxonnur2008@mail.ru](mailto:umidaxonnur2008@mail.ru)

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida bilimli va aql-idrokli, bilimdon kishilarining nafi har doim ko‘pchilikka tegib turishi, barcha murakkab ishlar bilim tufayli hal etilishi va bilim egalari har doim elda aziz bo‘lib, hurmat qozonishlari haqidagi gnoseologik talqini tahlil etiladi. Shuningdek, mutafakkirlarning bilim haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, bilim egallash insoniy fazilatning asosi ekanligi yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Bilim, bilish, o‘quv-idrok, ilm o‘rganish, bilimsizlik, donolik, insoniy fazilat, hurmat-ehtirom.*

### **Аннотация**

*В данной статье анализируется эпистемологическая интерпретация Юсуфа Хос Хаджиба в его труде “Кутадгу билиг” о том, что блага образованных и умных людей всегда доходят до большинства, что все сложные вопросы решаются посредством знаний и что обладающие знаниями всегда пользуются уважением и почетом у народа. Также проводится сравнительный анализ взглядов мыслителей на знание, подчеркивающий тот факт, что приобретение знаний является основой человеческой добродетели.*

**Ключевые слова:** *Знание, познание, обучение, невежество, мудрость, человеческая добродетель, уважение.*

### **Abstract**

*This article analyzes Yusuf Khos Hajib's epistemological interpretation in his work “Kutadgu Bilig” that the benefits of educated and intelligent people always reach the majority, that all complex matters are solved through knowledge, and that those with knowledge are always respected and honored by the people. Also, the views of thinkers on knowledge are comparatively analyzed, highlighting the fact that acquiring knowledge is the basis of human virtue.*

**Keywords:** *Knowledge, cognition, learning, ignorance, wisdom, human virtue, respect.*

**Kirish.** Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” – qut (saodat, baxt) keltiruvchi bilim asarining maydonga kelishi nihoyatda kuchli hayotiy zarurat va ma’naviy ehtiyoj bilan bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy maydonda arablar

hukmronligining yemirilishi va mahalliy mustaqil davlatlarning qaror topishi uning ma'naviy asoslarining ham yangilanishi va mustahkamlanishini taqozo etgan. O'sha paytdagi Qoraxoniylar davlatining falsafiy-axloqiy yo'riqnomasi sifatida paydo bo'lgan. Asarda turkiy xalqlarning badiiy-estetik tafakkuri, o'quv-idrok va odamzod naslining ulug'ligida bilimning kuchi va qudratini ko'rsatib bera olgan.

Yusuf Xos Hojib asarida xalqni bilim va hunar o'rganishga chorlaydi, chunki hamma yaxshiliklar bilimdan paydo bo'lishi, bilim yordamida insonning martabasi oshishi falsafiy-gnoseologik jihatdan talqin etilgan. Bilim-insoniy fazilatlarining asosi. Shu o'rinda ko'z o'ngimizda zamonlar osha bizgacha sog'omon yetib kelgan asar gavdalanadi. Nega u hech qachon o'z qimmatini yo'qotmadi? Chunki ilmu ma'rifat doimo inson hayot yo'lini yorituvchi chiroq vazifasini o'taydi. Qoraxoniylar davrida yaratilgan bo'lsada bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Nega? Bu asarda umumbashariy mavzular qalamga olingan. Davlat, boylik, ilm, zohidlik kabi timsollar qiyofasida Yusuf Xos Hojib har bir davlat va zamon uchun dolzarb mavzularni qalamga oldi va ularni negizini ilm deb bildi. Shu bois, ajdodlar merosi bugungi avlodning zamonaviy bilim egallashida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Tadqiqot metodlari (Methods).**

Ushbu maqolada "Qutadg'u bilig" asarida bilim haqida alohida bobning mavjudligi, uning "Bilig, uqush adrimin, asg'in ayur" ("Bilim, aql-idrok farqini, nafini aytadi") deb nomlanishi, falsafiy-gnoseologik mohiyati o'rganiladi. Bilimning asosiy xususiyati kishi uchun faqat nafdin iborat ekanligida, unga qadr-qimmat, baxt, hurmat va ehtirom keltirishi talqin etiladi. Shuningdek, "Qutadg'u bilig" asarida bilim egallashning ulug'ligi Sharq falsafasida, xususan Imom G'azzoliy ta'limotida bilim egallash ulug'ligi haqidagi qarashlari bilan solishtirilib, ilm o'rganish gnoseologiyasi tahlil qilinadi. O'quv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam va odamzod naslining ulug'ligi ham bilim tufayli ekanligi falsafiy-gnoseologik tahlil orqali ko'rib chiqiladi.

### **Natijalar (Results)**

Asarning dastlabki boblaridan biri bilim haqida bo'lib, bu bob "Bilig, uqush adrimin, asg'in ayur" ("Bilim aql-idrok farqini, nafini aytadi") deb nomlanadi. Yusuf Xos Hojib bilimni barcha yaramas, yomon ishlardan tiyib turuvchi jilovga qiyoslaydi. Inson faqat o'z bilimi bilangina tilaklari va o'z orzu-maqсадlariga erishishi, aql-idrok egalarining nafi har doim ko'pchilikka tegib turishi, barcha murakkab ishlar bilim tufayli hal etilishi va bilim egalari har doim elda aziz bo'lib, hurmat qozonishlari haqida fikr yuritiladi. Bilim haqida aytilgan fikrlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, "Bilimdonga balo yo'q" ligi hayotiy haqiqat ekanligini anglashimiz mumkin. Yusuf Xos Hojib bilimga intilmagan kishilarni kasalga o'xshatib, "Bilimsiz kishida kasallik bo'lar, Kasal emlanmasa, yashamas, o'lar!" deydi. Shuning uchun kasallikni tuzatib, nodonlikni yengib o'tib, bilimdonlar kabi shodon bo'lishlikka undaydi. O'quv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam va odamzod naslining ulug'ligi ham bilim tufaylidir. Yana bir hikmati bor: "Hazrati odam - Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram" deya Yusuf Xos Hojib o'z

fikrlarini dalillaydi. Yusuf Xos Hojib bilimni egallashdan asosiy maqsad biror bir naf ko'rish emas, balki, insonga qadr-qimmat, hurmat va ehtirom keltirishida deb biladi. "Qutadg'u bilig" asarida bilim va bilimdonlik ulug'lanib, mutafakkir kishi ko'nglini dengizga o'xshatar ekan, bilimni shu dengiz tubidagi injuga (marvarid) qiyoslaydi. Agar shu inju dengiz tubidan chiqarilmas ekan, oddiy soy toshidan farqi qolmaydi.

Jumladan,

Kishi ko'ngli go'yo tubi yo'q dengiz,  
Bilim bor tubida, u inju tengsiz. [1.18-b]

Mutafakkir fikriga ko'ra, agar ana shu injular dengiz tubida qoladigan bo'lsa, bularning tosh yoki inju ekanligini farqlash mushkul. Shuningdek, bilimlarga to'lib toshgan so'zlar kishi qalbining tub-tubida cho'kib yotar ekan, bu so'zlarning qadr-qimmatini ham anglash mumkin emas. Axir yer ostidan qazib chiqarilgan sof oltin toshlar kishi boshida bezak bo'ladi-ku! Shu tufayli:

Bilimli bilimin qilmasa bayon,  
Bilimi yorishmas o'tsa ham zamon [1.19-b]

Umuman olganda, mutafakkir ilmni eng yuksak boylik deb biladi.

### **Muhokama (Discussion)**

Sharqda, Imom G'azzoliy bilim egallash ulug'ligini ta'kidlab shunday deydi, "O'qimoq va o'rganmoq birla ilm hosil qilmoq ulamolar yo'lidir, nihoyati ulug' va sharofatlik ilmdir".[2.48-b] G'azzoliy kitob o'qish, ilm o'rganish gnoseologiyasi yoki texnologiyasini ancha asosli tarzda bayon qiladi. Ilm o'rganayotgan kishi avval uni tushunishi, qalban his qilishi, ya'ni mohiyatini anglashi lozim. Bu jarayon o'ylash, sukut saqlash orqali bo'lsa, uni o'rganish o'qish yoki tinglash tarzida bo'lishi kerak. So'ngra bilimni egallash, yodlash orqali mustahkam xotirada saqlash lozim. Shundan so'ng, olgan bilimiga amal qilishi va boshqalarga tarqatishi, o'rgatishi muhimdir. Bu yerda biz G'azzoliy falsafasining gnoseologiya (bilish nazariya) sini ko'ramiz. Ilm o'rganish gnoseologiyasi – o'qish, tinglash, uni chuqur mulohaza qilish va fahmlash, yodlash, xotirada saqlash hamda unga amal qilish, kishilarga o'rgatish, tarqatishdan iborat. Bular o'ziga xos bilish bosqichlari hisoblanadi.[4.81-b]

Borliq haqidagi bilimlarga to'xtalgan Yusuf Xos Hojib odam bilishi mumkin bo'lmagan narsa, bilim bilan yechilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli osmon sari ham yo'l ochiladi, deydi; bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi. "Bilim, – deb yozadi Yusuf Xos Hojib, – ipor bilan juda o'xshash. Ularning har ikkalasini yashirmoq behuda. Iforni yashirsang, hidi bildirib qo'yadi. Bilimni yashirsang, tiling fosh etadi. Bilim aslida bitmas – tunganmas boylikka o'xshash. Ammo uning boshqa boyliklardan tubdan farqi bor".[3.18-b] Shu ma'noda, bilim manbai bo'lgan kitob-insonning moddiy va ma'naviy olamini boyitadigan eng qudratli va bebaho boylikdir.

Umuman olganda, bilim insoniy qadriyatlardan biri bo'lib, borliqning ideal obrazidir. Bizning ishimiz o'qish va o'qish, imkoni boricha ko'proq

bilimga ega bo'lish uchun intilishimizdir, chunki jiddiy ijtimoiy yo'nalishlar bilim bor yerda, insoniyatning istiqbol baxti ham faqat bilimdadir.

Agar o'tmishdagi ajdodlarga nazar solguday bo'lsang, bir holatni kuzatasan: oddiy odam ham, katta martabadagi kishilar ham bilimli va dono bo'lsa, ular el-yurt tadbirini o'ylashgan. Bugun ham ezgu deb atalgan har qanday odam ham ezgularga bosh bo'ladi. Boshliq bilimli va dono bo'lsa, atrofiga o'ziga o'xshaganlarni yig'adi. Bu xil boshliq elini boyitadi. Bilimli va dono boshliq saxiy degan nom oladi. Saxiy o'lsa ham nomi tirik qolaveradi.

Jahonda bilimdan ulug', bilimdan aziz nima bor? Bilimsiz desalar, bu inson uchun haqoratdir.

Nima der, eshitgin, bilimli kishi,  
Jahonni ko'p ko'rib, oqargan boshi:  
Bilimsizga to'rdan o'rin bo'lsa, ko'r,  
Bu to'r poygak bo'ldi, poygak esa to'r.

Ammo donoga quyidan, poygakdan o'rin tegsa, o'sha poygak to'rdan ham baland sanaladi. Donoga ko'rsatilgan bunday izzat-ikrom, hurmatning sababi, hech shubhasiz, bilimdir.[1.21-b] Donolik yo'li bilim bilish, turli sohalardagi ma'lumotlarni o'rganishdir. Bilimga erishib dono bo'lganlarning elga ham nafi ko'p tegadi. Agar bola kichiklikdan bilim o'rgansa, uning idroki ham yaxshi bo'ladi, zakovati ortadi.

Yusuf Xos Hojib o'quv-idrok, bilim haqida alohida to'xtaladi. O'quv-idrok qorong'i tundagi mash'aldan taralayotgan nurga qiyos. U kishini yoritadi, unga ro'shnolik beradi.

O'quv qut beradi, bilim – sharaf-shon,  
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.[1.22-b]

O'quv-idrok kishini pokiza qiladi. Bilim esa yuksaltiradi. Inson zaminda paydo bo'lgan ekan, boshqa mavjudotlardan o'z bilimi bilan farqlanadi. Lekin bilim bilan o'quv-idrok bir xil narsa emas. O'quv-idrok kishi miyasiga jo etilgan. Boshning azizligi shundan. Kishi uyga, oddiy uy emas, qorong'u uyga o'xshaydi. O'quv-idrok esa mash'al kabi unga nur sochadi, shu uyni yoritadi, ya'ni kishini ravshanlikka eltadi. Olamdagi turli ezguliklar o'quv-idrok tufayli sodir bo'ladi. Bilim esa kishini yuksaltiradi, unga ulug'lik keltiradi.

Umuman olganda, butun ishda o'zini qo'lga ola bilgan insonlar barcha ishlarni to'la va tugal ado etishadi. Bilimlilarning ishni hal etish usullari shu. Bunday odam tilagiga yetadi, maqsadiga oson erishadi.

### **Xulosa**

Bilimli kishi ikki dunyo saodatining egasi. Aqlu idrok egasi bo'lgan kishilar hayotda turli sinovlar va qiyinchiliklar oldida o'zlarini mardona tutadilar. O'quv va idrok zulmat tubidagi mash'aladir. Bilim kishini shu zulmatdan ozod qiladi. Bilimni qadri shu darajada balandki, u kishini do'zax o'tidan ham xalos qilishi mumkin. Shunga ko'ra, Yusuf xos Hojib nazarida bilimsizlar dononing oldida bosh egib turishi, shuning uchun davlat boshlig'i el-yurt ishlarini bilimdon kishilarga bermog'i joiz. Yusuf Xos Hojib O'gdulmish vazir bo'lgan paytda

mamlakatda yuz bergan ijobiy o'zgarishlar, el-yurt farovonligi, zulmu sitamlardan forig' bo'lishini ham undagi bilimdonlik bilan bog'laydi.

Olam yaxshiliklarining hammasi uchun sabab bilimdir. Bilim bilan hatto ko'kka ham yo'l topsa bo'ladi. Shuning uchun qayerda bilim bor ekan, sen o'zingni o'sha yerga yondashtir, undan bahra ol. Bilim yot-begonani ham, o'z kishilaringni ham ulug'laydi. "Qutadg'u bilig" – baxtu saodat haqidagi kitobdir. Asarni o'qing, zero unda ibrat, ma'rifat, hayotiy ko'rsatmalar va inson uchun baxt-saodat kalitlarini ochuvchi bilim manbaidir.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. ("Saodatga eltuvchi bilim") / (Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi B.To'xliyev). – Toshkent.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 200 b.
2. Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat (ruh haqiqati). –T.: Adolat, 2005. 48-b
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –Toshkent: -Yulduzcha, 1990, – 18 b.
4. Nurmatova U.J. Kitob-bilim manbai, bilim-uchinchi renessans poydevoridir. "O'zbekistonda falsafa tarixi maktabi va uchinchi renessans" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 2022. – 79 b.